

## TIZIMLI TAFAKKUR VA TAFAKKURNING MUHIM SHAKLLANISH JARAYONLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11125844>

**Axmedov Shavkatjon Turdaliyevich**

*O'zbekiston respublikasi prezidenti xuzuridagi*

*Xavfsizlik kengashi kotibiyati*

*Qurolli kuchlarni rivojlantirish shu'basi mudiri*

*E-mail: axmedov @ psf.uz*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada tizimli tahlil asoslarini va tizimli tadqiqot uslubiyatini hamda davlat idoralarining siyosat, iqtisod va xavfsizlik sohalaridagi faoliyatida foydalaniladigan zamonaviy tahlil uslublarini o'rganishdir. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur maqolada, axborot-tahliliy faoliyatda tizimli tahlil yondashuvlarini va uslublarini qo'llash bo'yicha bilim va mahorat ega bo'lishda amaliyot bilan bevosita bog'liq nazariy bilimlar berish ustuvor yo'nalishlari haqida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*tizimli tahlil, fikrlash, inqiroz, iqtisod, irarxiya, kommunikativ, qoida, asos, hamkor.*

### **Аннотация**

*В данной статье рассматриваются основы системного анализа и методология системного исследования, а также современные методы анализа, используемые в деятельности государственных органов в сферах политики, экономики и безопасности. Исходя из этого, в данной статье говорится о приоритетах предоставления теоретических знаний, непосредственно связанных с практикой приобретения знаний и навыков применения подходов и методов системного анализа в информационно-аналитической деятельности.*

### **Ключевые слова**

*системный анализ, мышление, кризис, экономика, иерархия, коммуникатив, правило, основа, партнер.*

### **Abstract**

*This article discusses the basics of system analysis and the methodology of system research, as well as modern methods of analysis used in the activities of government agencies in the fields of politics, economics and security. Based on this, this article talks about the priorities of providing theoretical knowledge directly related to the practice of acquiring knowledge and skills in applying approaches and methods of system analysis in information and analytical activities.*

### Key words

*system analysis, thinking, crisis, economics, hierarchy, communication, rule, basis, partner.*

Shunday qilib, tizimli tahlil (TT) muammoni hal qilish uslubiyati sifatida muammoni hal qilish uchun barcha zarur bo'lgan uslublarni, bilimlarni va harakatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi "sinch" rolini bajaradi. Aynan shu bilan uning jarayonlarni tadqiq qilish, statistik yechimlar nazariyasi, tashkillashtirish nazariyasi kabi sohalarga bo'lgan munosabati aniqlanadi.

Ushbu vazifani amalga oshirishda ta'lim oluvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak:

- o'rganish uchun belgilab berilgan muammoga ta'sir qiluvchi omillarning va sharoitlarning tugal ro'yxatini aniqlash;
- muammoning mohiyatini ochib beruvchi tizim modelini yaratish;
- tayyorlanayotgan muammo yechimi loyihasi mos keladigan mezonlarni (va ularning ustuvorligini) aniqlash;
- mezonlarga yana ham to'laroq mos keladigan muammo yechimlarini ishlab chiqish va h.k.

Tizimli tahlil mohiyatini ob'ektlarda qiyin tushuniladigan va qiyin kuzatiladigan xususiyatlarni va munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan tizimlar ko'rinishida ushbu ob'ektlarni tasavvur qilish yordamida tadqiq qilish uslubiyoti tashkil qiladi.

Fan sifatida tizimli tahlil ob'ektini o'rganilayotgan muammo yoki hodisa tashkil qiladi. Bevosita tizimli tahlilning tadqiq predmeti bo'lib tizimning o'zi xizmat qiladi. Predmetli soha - bu tizimli jarayonlarning va hodisalarning predmetli jihatlarini o'rganuvchi fan bo'limi.

*Tizimli fikrlash alohida fikrlash turi sifatida*

Agar klassik tabiiy fanlar dunyoni harakatdan, ashyo va energiyaning bir-biriga aylanishidan kelib chiqqan holda tushuntiradigan bo'lsa, bugungi real olam tobe bo'lgan tizimli, ayniqsa tizimli-axborotli va sinergetik jarayonlarni inobatga olgan holda tushuntirilishi mumkin.

Maxsus fikrlash turi bo'lgan tizimli fikrlash jarayon yoki hodisa mohiyatini nafaqat tushunishni, balki ularni boshqarishni istaydigan tahlilichiga xosdir. Ayrim hollarda bu fikrlash turini tahliliy fikrlash bilan o'xshatishadi, ammo ushbu o'xshatish to'liq emas. Xususan, idrok tahliliy bo'la oladi, tizimli yondashuv esa, bu tizimlar nazariyasiga asoslangan uslubiyatdir.

**Predmetli (predmetli yo'naltirilgan) fikrlash** - bu uslub bo'lib, nisbatan tor

va aniq bo'lgan muayyan yo'nalishga (voqeaga, hodisaga) qaratilgan ilmiy jarayondir.

**Tizimli (tizimli yo'naltirilgan) fikrlash** - bu uslub bo'lib, predmetli (predmetli yo'naltirilgan) fikrlashga nisbatan kengroq (o'z ichida ikki va undan ortiq predmetli, (predmetli yo'naltirilgan) fikrlashga taalluqli bo'lgan ob'ektlarni mujassamlashtirgan) lekin aniq bo'lgan muayyan yo'nalishga (voqeaga, hodisaga) qaratilgan ilmiy jarayondir. Ko'p hollarda ushbu fikrlashni "tizimlarni tadqiq qilish" uslubiyati ham deb atashadi.

Tizimli fikrlashda har xil tarkibiy elementlardan tashkil topgan voqea va hodisalar yig'indisi nafaqat tarkibiy elementlar hatti-harakatini, xatto ularning sifatini va miqdorini aniqlamasdan hatti-harakatini oldindan aytib berish va istiqbolini belgilash mumkin bo'lgan bir butunday hamda umumiy qoidalari bo'yicha tashkillashtirilgan bir voqea va hodisa sifatida dolzarblashtiriladi va tadqiq qilinadi. Tizim bir butunlik sifatida qanday qilib faoliyat ko'rsatayotganligi yoki rivojlanayotganligi tushunib etilmaganicha, uning tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar ushbu rivojlanish bo'yicha to'liq bo'lgan ma'lumotni bermaydi.

Masalan, tizimli fikrlash tamoyiliga asosan jamiyat insonlardan (va albatta, jamoat tashkilotlaridan) tashkil topgan. Shuningdek, har bir inson tizimdir (masalan, fiziologik). O'z navbatida, insonda ham uning o'ziga xos bo'lgan (organizm sifatida qaraganda) tizimlar mavjud (masalan, qon aylanish tizimi). Insonlar o'ziga o'xshashlar bilan hamkorlik qilishi oqibatida yangi tizimlar tashkil topadi - oilalar, etnoslar va boshq. Bu kabi o'zaro aloqalar jamoat tashkilotlari, alohida insonlar darajasida va hattoki mustaqil qon aylanish tizimida (masalan, to'g'ridan-to'g'ri qon quyish natijasida) amalga oshishi mumkin.

Tizimli fikrlash qoidalariga asosan har qanday tizim boshqa bir tizimga ta'sir ko'rsatadi. Bundan kelib chiqib ta'kidlaydigan bo'lsak, bizni o'rab turgan butun borliq - bu bir-biri bilan doim aloqada bo'lgan tizimlardir.

Shunday qilib, ilmiy bilim sifatida tizimli tahlilning quyidagi shartlari zarurdir:

- predmetli sohaning mavjudligi (tizim va tizimli jarayonlar);
- tizimning umumiy xususiyatlarini aniqlash, tizimlashtirish va izohlash;
- tizimlardagi qonuniyatni va o'zga variantlarni aniqlash va izohlash;
- tizimlarni, ularning xatti-harakatini va atrof-muhit bilan bo'lgan aloqasini o'rganish uchun qonuniyatlarni o'rganish;
- tizimlar to'g'risidagi bilimlarni to'plash, saqlash va foydalanish.

Shuningdek tizimlar muayyan qonuniyatlarga ega:

**1. Yaxlitlik.** Agar tizimning ayrim qismida muayyan o'zgarish yuz bersa va bu o'zgarish butun tizimga ta'sir qilsa, u holda tizim o'zini yaxlit birikma kabi tutmoqda degan to'xtamga kelinadi. Misol tariqasida AQSHda yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozni keltirish mumkin. Xususan, birgina Amerikada yuz bergan iqtisodiy inqiroz butun jahon iqtisodiyoti barqarorligiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

**2. Yakkalik.** Yaxlitlikdan farqli ravishda yakkalikda tizimning ma'lum qismida yuz bergan muayyan o'zgarish butun tizimga kutilgan darajada ta'sir qilmaydi. Masalan, avtomobil tizim sifatida ko'rilsa va uning bir elementi asosiy maqsadini bajarishga sezilarli ta'sir ko'rsatmasa, u holda so'z yakkalik to'g'risida ketadi. Avtomobilning (har qanday tizimni ham) bu kabi detallarini siz o'zingiz avtomobilga (har qanday tizimga ham) nisbatan belgilagan bosh maqsadga qarab aniqlashingiz mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, agar tizimning faoliyat jarayonida yaxlitlikdan yakkalikka ketma-ket o'tishi kuzatilsa, bunday hollarda tizim progressiv tarzda ajralib qolishga ta'sirchan deb topiladi. Buni Afg'oniston misolida ko'radigan bo'lsak, ushbu davlatda yillar davomida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy sohalardagi muammolar keskin tus olib boravergani sababli u jahon hamjamiyatidan ajralib qoldi.

**3. Kommunikativlik.** Tizimlarning asosiy qismi alohida emas, balki tashqi dunyo bilan ko'plab kommunikatsiyalar yordamida bog'langan holda mavjud. SHuning uchun ham bu kommunikativlik deb nomlanadi. Har bir davlat jahon hamjamiyatining to'laqonli sub'ekti bo'lish uchun xalqaro munosabatlarning boshqa sub'ektlari bilan aloqada bo'lishi shart va ushbu aloqalar kommunikatsiya vositalari (temir yo'l, avtomobil va havo yo'llari, elektr tarmoqlari, gaz quvurlari va h.k.) orqali amalga oshiriladi.

**4. Irarxiyalik.** Irarxiyalikda boshlang'ich tizim dekompozitsiyasining ketma-ketligi qator bosqichlarga, ya'ni quyi bosqichning yuqorisiga tobeligini belgilash tushuniladi.

#### *Yopiq va ochiq tizimlar*

Yopiq tizim qattiq mustahkamlab qo'yilgan chegaralarga ega. Uning harakatlari tizimni o'rab turgan muhitdan nisbatan mustaqil. Soat yopiq tizimga misol bo'la oladi. Soatda uning o'zaro bog'liq qismlari energiya manbayiga ulanishi bilanoq to'xtovsiz va aniq harakat qilishni boshlaydi. Soatda to'plangan energiya manbai mavjud ekan uning tizimi atrof-muhitdan mustaqildir.

Ochiq tizim tashqi olam bilan o'zaro bog'liqligi bilan izohlanadi. Energiya,

axborot, materiallar – bu tizimning xarir chegarasi orqali tashqi dunyo bilan aloqa qilish ob’ektlaridir. Bunday tizim o’zini-o’zi ta’minlay olmaydi. U tashqaridan bo’lgan energiya, axborot va materiallarga muhtoj. Bundan tashqari, ochiq tizim tashqi olamda yuz berayotgan o’zgarishlarga moslashish qobiliyatiga ega, aks holda u o’z faoliyatini davom ettira olmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Tarix va bugungi kun tendensiyalari shuni ko’rsatmoqdaki, tizim ta’riflari asosida tizimli tahlilning qator metodikalari ishlab chiqilgan. Ushbu metodikalar tizim maqsadlari tuzilmasi to’liqligini tanlangan konsepsiyagacha va uning asosida yotuvchi ta’rifgacha aniq belgilaydi.

Tizim ta’rifiga uni tadqiq qilishning boshlanish vositasi va tizimni o’zgartirish yoki loyihalashtirish vaqtida yaxlitlikni saqlab qolishga harakat qilishi sifatida qarash, yuqorida keltirilgan tizim ta’riflarda yo’l qo’yiladigan eng sodda qismchalarga ajratilmaydi (ya’ni to’liq buzilmaydi), balki aksincha, tadqiq qilinayotgan yoki yaratilayotgan tizim mavjud bo’lishi va faoliyat yuritishi uchun zarur bo’lgan mustahkamlangan tarkibiy qismlar yig’indisi sifatida taqdim qilinadi degan tushunchani taklif qilish noto’g’riligini keltirib chiqardi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Uzbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent: «Uzbekiston» NMIU, 2018. -B.5.
2. Агошкова Е.Б. Ахлибининский Б.В. Эволюция понятия системы // Вопросы философии. 1998, № 7. С. 170-178.
3. Samarov R.S., Otamatov M.A. Harbiy faoliyatda tizimli tahlil. Darslik. – T.: O’R QK Akademiyasi, 2021. (inv. № 4357/1-5). B. 327.
4. Igamberdiyev S.K., Toirov A.I. Tizimlar va tizimli tahlil nazariyasi. – T.: O’R QK Akademiyasi, 2014. (XDFU, inv. № 1410).
5. Игамбердиев С.К., Тоиров А.И. Теория систем и системного анализа. – Т.: Академия ВС РУ, 2013. (ДСП, инв. № 1150).